

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/2025.27.12.Tar.01.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

TESHABOYEV BOBURJON ABROR O‘G‘LI

**O‘ZBEKISTONDA FUQARO MUHOFAZASI TIZIMI TARIXI
(1932-2021-yillar)**

07.00.01 – O‘zbekiston tarixi

**TARIX FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

TOSHKENT – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)

Teshaboev Boburjon Abror o‘g‘li

О‘zbekistonda Fuqaro muhofazasi tizimi tarixi (1932-2021-yillar).....3

Тешабоев Бобуржон Аброр угли

История системы гражданской защиты в Узбекистане (1932-2021).....25

Teshaboev Boburjon Abror ugli

History of the civil protection system in Uzbekistan (1932-2021).....49

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....54

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/2025.27.12.Tar.01.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

TESHABOYEV BOBURJON ABROR O‘G‘LI

**O‘ZBEKISTONDA FUQARO MUHOFAZASI TIZIMI TARIXI
(1932-2021-yillar)**

07.00.01 – O‘zbekiston tarixi

**TARIX FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

TOSHKENT – 2026

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.1.PhD/Tar1334. raqam bilan ro'yxatga olingan

Dissertatsiya ishi Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetida himoyaga tayyorlandi.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb sahifasida (<http://ik-tarix.nuu.uz>) va "ZiyoNET" axborot-ta'lim portali (www.ziynet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Duschanov Rasuljon Rahimbayevich
tarix fanlari falsafa doktori (PhD), dotsent

Rasmiy opponentlar:

Rasulov Abdulla Nuriddinovich
tarix fanlari doktori, professor.
Hasanov Baxtiyor Vaxapovich
tarix fanlari doktori, professor.

Yetakchi tashkilot:

Islom Karimov nomidagi
Toshkent Davlat texnika universiteti.

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Tar.01.04 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil "___" _____ soat _____ dagi majlisida bo'lib o'tadi.

(Manzil: 100174, Toshkent shahri, Mirzo G'olib ko'chasi, O'zbekiston Milliy universiteti Tarix fakulteti, 1-qavat, 110-auditoriya. Tel.: +99871 246-12-24; faks: 99871 246-53-21, 99871 246-02-24; e-mail: nauka@nuu.uz. O'zbekiston Milliy universiteti).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston Milliy universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100174, Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 4-uy. Bosh bino). Tel.: +99871 236-46-55, faks: +99871 246-02-24).

Dissertatsiya avtoreferati 2026 yil "___" _____ kuni tarqatildi.
(2026-yil "___" _____ dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi bilan).

X.E.Yunusova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, t.f.d., professor

J.E.Tog'ayev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
kotibi, t.f.f.d. (PhD), dotsent

N.U.Musayev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, t.f.d.,
professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Globallashuv sharoitida jahonda sodir bo'layotgan geosiyosiy jarayonlar, ayrim mamlakatlar o'rtasidagi kelishmovchiliklar oqibatida turli hududlarda yuzaga kelayotgan harbiy to'qnashuvlar va qurolli mojarolarning mavjudligi tinch aholining xavfsizligini ta'minlash, xalq xo'jaligini himoya qilish, bolalar va nogiron aholini evakuatsiya qilish rejalarini ishlab chiqish, shaharlar va xo'jalik obyektlarida muhandislik-texnik tadbirlarni o'tkazish, aholini havo hujumi va zamonaviy qurollardan himoya qilish, tahdidlar haqida aholini o'z vaqtida ogohlantirishni ta'minlash, himoya inshootlarini qurish va ko'plab boshqa tadbirlarni bajarish masalasida har bir davlatning oldiga muhim vazifalarni qo'ymoqda. Bu borada olib borilayotgan chora-tadbirlar samarasini ta'minlash, ya'ni favqulodda vaziyatlar sodir bo'lganda aholi xavfsizligini ta'minlash davlat boshqaruv tizimining funksional majburiyatlaridan biri hisoblanadi.

Dunyodagi yetakchi ilmiy tadqiqot markazlarida O'zbekistonda Sobiq Ittifoq davri va mustaqillik yillarida faoliyat yuritgan havo hujumidan mahalliy mudofaa sohasi va fuqaro muhofazasi tizimi tarixi, ularning favqulodda vaziyatlarga tayyorgarligi, ayniqsa sovet hukmronligi yillarida xalqaro munosabatlarda yuzaga kelgan tanglik sharoitida aholining xavfsizligini ta'minlash borasida olib borilgan chora-tadbirlar doimiy ravishda o'rganib kelingan. Bugungi kunda ham turli ko'rinishdagi tabiiy ofatlar, havo hujumi va texnogen hurujlardan himoyalaniish bilan bog'liq masalalar xalqaro miqyosda tadqiq etilmoqda. Shu jihatdan tadqiqotlarda erishilgan natijalar bu jarayonlar yuzasidan tegishli xulosalar chiqarish hamda nazariy va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish imkonini beradi.

Mustqillik yillari O'zbekistonda jamiyat hayotining barcha sohalarida olib borilayotgan islohotlar jarayonida favqulodda vaziyatlar sodir bo'lganda aholi xavfsizligini ta'minlash, ularni boshqa hududlarga ko'chirish, muhim obyektlarni qo'riqlash hamda tabiiy ofatlarning oqibatlarini bartaraf etish masalalari davlat siyosatining asosiy vazifalari sifatida belgilandi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Fuqaro muhofazasi to'g'risidagi Qonun qabul qilinib¹, unda: "...aholini harbiy harakatlar olib borish paytida yoki shu harakatlar oqibatida yuzaga keladigan xavflardan himoyalaniish usullariga o'rgatish; boshqaruv, xabar berish va aloqa tizimlarini tashkil qilish, sohani rivojlantirish va doimiy shay holatda saqlab turish; xalq xo'jaligi obyektlarining barqaror ishlashini ta'minlash yuzasidan kompleks tadbirlar o'tkazish; aholini, moddiy va madaniy boyliklarni xavfsiz joylarga evakuatsiya qilish; aholini umumiy va yakka muhofazalanish vositalari bilan ta'minlash tadbirlarini o'tkazish; tezkor qutqaruv ishlarni o'tkazish va boshqa vazifa hamda majburiyatlar" – ko'rsatildi. Shu nuqtai nazardan olib qaraganda, O'zbekiston hududida faoliyat yuritayotgan fuqaro muhofazasi tizimining tarixini o'rganish, uning faoliyatiga tanqidiy baho berish orqali tegishli xulosalar chiqarish va soha rivojiga oid tavsiyalar berish muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Fuqaro mudofaasi to'g'risidagi Qonun. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2000-y., 5-6-son, 151-modda; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, <http://lex.uz/uz/docs/-2994>.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” to‘g‘risidagi PF-60-son Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 20-oktabrdagi “Aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan ishonchli muhofaza qilish sohasini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish to‘g‘risida”gi PF-185-son Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 20-oktabrdagi “Favqulodda vaziyatlar organlari faoliyatini yanada takomillashtirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-310-son Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 20-oktabrdagi “Favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasini raqamlashtirish hamda ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-311-son Qarori hamda mavzuga tegishli boshqa me‘yoriy huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Mavzuga tegishli adabiyot va tadqiqotlarni mazmuni hamda davriga qarab uch guruhga, ya‘ni, birinchisi, sovet davridagi adabiyotlar, ikkinchisi, mustaqillik yillarida respublikada nashr etilgan kitoblar va olib borilgan tadqiqotlar, uchinchisi, xoriyda e‘lon qilingan adabiyotlarga ajratib tahlil qilish maqsadga muvofiq.

Sovet davrida nashr etilgan adabiyotlar² va ilmiy tadqiqotlarda³ aholi va xalq xo‘jaligi obyektlarini harbiy holat davrlarda jumladan jahon urushlarida fuqaro muhofazasining o‘rni, jahonda turli xildagi ommaviy qirg‘in qurollarining paydo bo‘lishi, zamonaviy qurollardan aholi, xalq xo‘jaligi va toifalangan obyektlarning barqaror ishlashini ta‘minlash natijasida fuqaro muhofazasi tizimining kuchaytirishga bo‘lgan ehtiyoj kabi masalalar tahlil etilgan bo‘lib, ularda tadqiq etilayotgan mavzu yuzasidan qator faktik ma‘lumotlar keltirilgani bilan ahamiyatga molik. Shuningdek, bu davrda e‘lon qilingan ilmiy maqolalarda⁴

² Ахунджанов С. Гражданское оборона Узбекистана на современном этапе. – Ташкент: Узбекистан, 1977; Алтуни А. Граждан мудофааси тузилмаларининг табиий офатларга қарши курашдаги иши. – Тошкент: Ўқитувчи, 1979. - 180 б; Бозоров Ю. Улуғ Ватан уруши йилларида Ўзбекистон оммавий-мудофаа ташкилотлари (1941-1945 йиллар). – Тошкент: Фан, 1979. – 61 б.; Ахунджанов С. Гражданской обороне Узбекской ССР – пятьдесят лет. – Ташкент: Знание, 1982; Хошимов М. Замин ҳаракатга келганда. – Тошкент: Фан, 1986. - 34.б; Атаманюк Г., Ширшев Л., Акимов Н. Гражданское оборона. Учебник. – Москва: Высшая школа, 1986.; Касымов Б. Охрана социалистической собственности от пожара. – Ташкент: Мехнат, 1987; Его же. Организационные и правовые основы пожарной безопасности. – Ташкент: Мехнат, 1990;

³ Муминова Х.М. Деятельность общественных организаций Узбекистана по укреплению обороноспособности страны накануне великой отечественной войны (1937-июнь 1941 гг.). Дисс. канд. ист. наук. – Ташкент, 1985. - 187 с; Халиков И. Орошение и освоение крупных целинных массивов Среднеазиатских республик (60-е – начало 80-гг.). Дисс. докт. ист. наук. – Ташкент, 1989. - 380 с.

⁴ Горшков Г. Ер қимирлаши. // Қизил Ўзбекистон. 1952, № 2. – Б. 231; Нуркулов Р. Колхоз вышел на учение. // Военные знания. №9, 1967 г; Улянов В. (Начальник штаба гражданской обороны Узбекской ССР). Быть на чеку. // Правда Востока 4 апреля 1968 г.; Буканов Н. Всенородное дело. // Вечерный Ташкент. 31 марта

ham respublikadagi favqulodda vaziyatlarning oqibatlarini bartaraf etish borasidagi jarayonlar ko'rsatib berilgan.

Umuman aytganda, birinchi guruhga kiritilgan adabiyotlar va maqolalarda mavzuga oid qator statistik materiallar uchrasa-da, biroq fuqaro muhofazasi, favqulodda vaziyatlar va ularni ijtimoiy ta'sirini oldini olish borasida yagona tizimning shakllanishi va faoliyati tarixiylik jihatdan tadqiq qilinmagan.

Mustaqillik yillarida tarixchi, huquqshunos va sotsiologlar tomonidan nashr etilgan adabiyotlar⁵ va tadqiqotlarda⁶ fuqaro muhofazasi va favqulodda vaziyatlar sodir bo'lganda ularning oqibatlarini kamaytirish, xalq xo'jaligi obyektlarini barqaror ishlashini ta'minlash masalalari tadqiq etilgan.

Shuningdek, aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish, aholining tinchligini ta'minlash, qaltis vaziyatlarda kishining o'zini tutishi va o'zgalarga yordam berishi maqsadida aholini o'qitish va o'rgatish borasida tavsiyalar, qo'llanmalar ham chop etilgan⁷.

Mustaqillik yillari respublika iqtisodiyotida ishlab chiqarish tarmoqlarining rivojlanishi jarayonida fuqaro muhofazasi tizimining takomillashtirish chora-tadbirlari borasida bir qator maqolalar nashr etilganligini ham ta'kidlab o'tish maqsadga muvofiq. Xususan, mavzuga oid material va tegishli xulosalar Favqulodda vaziyatlar vazirligining matbuot organi "Vaziyat" gazetasi, "Muhofaza+" jurnali va boshqa matbuot nashrlarida chop etilgan⁸.

1970 г.; Юдин Ю. Если прозвучит тревога. // Правда Востока. 29 января 1972 г.; Раупов Х. Мактаса арзигулик. // Ёш Ленинчи. 1973 йил 25 январ.; Круглов Н. Объект машқлари диққат марказида. // Ленин байроғи. 1975 йил 8 январ.

⁵ Нурхўжаев А., Юнусов М., Хабибуллаев И. Фавқулудда вазиятлар ва муҳофаза тadbirlari. – Тошкент: Университет. 2001. – 67 б.; Фавқулудда вазиятлар ва муҳофаза тadbirlari. Муаллифлар жамоаси. – Тошкент: Университет, 2001; Таджиев М., Неъматов И. Фавқулудда вазиятларда фуқаро муҳофазаси. – Тошкент, 2003. – 260 б.; Икромов Э. Фавқулудда вазиятлар ва жамоатчилик фикри. – Тошкент: Адолат, 2004.; Миллий давлатчилик: хавфсизлик ва барқарорлик. – Тошкент: Академия, 2007; Норбоев А., Ишхўжаева М. Диққат зилзила. – Тошкент: ТДПУ, 2012.; Артиков Т.У.и др. Сейсмическая опасность территории Узбекистана. – Тошкент: ООО Полимеханика, 2012.; Ўзбекистон Республикаси ФМИ Зилзилаларнинг мониторинг қилишнинг истиқболлари ва ривожланиш асослари. // Илмий-амалий семинар материаллари. – Тошкент: ФМИ, 2018.; Zilzilada aholini harakatlanishga tayyorlash va o'rgatishning innovatsion uslublari. Ilmiy-amaliy seminar materiallari. O'zR FVV FMI, – Toshkent, 2021. – 131 b.

⁶ Икромов Э. Ижтимоий хавфли ҳолатлар ва фавқулудда вазиятлар шароитида жамоатчилик фикрини шакллантириш ва бошқариш. Социология фан. номз. дисс... – Тошкент, 2003; Азимов Ҳ.И. Иккинчи жаҳон урушида Ўзбекистон ҳарбийлари иштироки ва мавқеи (1941-1945-йиллар). Тарих фан. номз. дисс. – Тошкент. 2004.; Мавлянова Н.Г. Сейсмические риск в Узбекистане. Автореф. дисс... докт. физических наук. – Ташкент, 2007.; Усмонов М. Хавфсизлик ва мудофаани таъминлаш бўйича давлат функцияларининг назарий ва ҳуқуқий асослари. Юридик фан. номз. дисс... – Тошкент, 2010; Азизов Т. Фавқулудда экологик вазиятларни бартараф этишга доир давлат сиёсатининг сиёсий дискурси (Ўзбекистон ва Россия мисолида). Сиёсий фан. бўйича фалс. докт. (PhD) дисс... – Тошкент, 2019; Ўразбаев Н. Ўзбекистонда ёнгин хавфсизлиги тизимининг шаклланиши ва ривожланиш босқичлари (XX-XXI аср бошлари). Тарих фан. бўйича фалс. докт. (PhD) дисс... – Тошкент, 2021; Qurbonov N. O'zbekistonda seysmik jarayonlar tarixi (1966-2020 yy). Tarix fan. bo'yicha fals. dokt. (PhD) diss... – Toshkent, 2023.

⁷ Зилзила-табiiй офатдир: зилзила юз берганда фуқароларнинг ҳатти-ҳаракатлари қоидалари ҳақида эслатмалар. – Тошкент: Молия, 1999.; Илясова З.Ф. Ҳаёт хавфсизлиги асослари. – Тошкент: Молия, 2001. – 219 б.; Неъматов И. Фавқулудда вазиятларда фуқаро муҳофазаси. – Тошкент, 2003.; Ёрматов Г. ва б. Ҳаёт фаолияти хавфсизлиги. – Тошкент: Алоқачи, 2009; Қурбонов Ж., Мамарасулов Э. Ҳаёт фаолияти хавфсизлиги. Ўқув қўлланма. – Самарқанд, 2016. – 274 б.; Рахимов О. Ҳаёт фаолияти хавфсизлиги (маърузалар қуси). – Қарши, 2021. – 84 б.

⁸ Ibrohimov R. Solnomalar hikoyasi. // Fuqaro muhofazasi. 2002, №1; Davtyan A. Zamonaviy qurilma. // Muhofaza +, №1, 2004; Ilyosova Z., Sunami. // Muhofaza +. 2005, № 1; Rahmonov I., Ilyosova Z. Ta'limga e'tibor shumi. // Muhofaza+. 2005, №1; Хусанова С. О необходимости программы ОБЖ. // Муҳофаза+. 2009, №2; Rahimjonova D., Suyunov A. Amaliyotga tatbiq etildi. // Muhofaza+. 2009, №10; Alixonov B. Ekologik qonunchilik istiqboli. //

Shu o'rinda qayd etish joizki, mustaqillik yillarida soha tarixini o'rganishda O'zbekiston Respublikasi hukumatining xorijiy davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan imzolagan hujjatlar ham muhim ahamiyat kasb etadi⁹. Ushbu hujjatlarda Hukumatlarning ikki tomonlama hamda Shanxay hamkorlik tashkiloti¹⁰ va Mustaqil davlatlar hamdo'stligi¹¹ tarkibiga kirgan davlatlar bilan hamkorlikda favqulodda vaziyatlarni oldini olish va bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlarni rejalashtirish va amalga oshirish, aholini favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga tayyorlashni tashkillashtirish bo'yicha tajriba almashish to'g'risidagi xalqaro kelishuvlar o'z aksini topgan.

Bundan tashqari ushbu hujjatlarda, birinchidan, O'zbekiston hamda qo'shni mamlakatlardagi favqulodda vaziyatlar va ularning oqibatlari haqida ko'plab xalqaro ma'lumotlar, xulosalar berilgan, ikkinchidan esa, favqulodda vaziyatlar oqibatlarini kamaytirishga asos bo'ladigan omillar globaligi bilan ham o'rin olgan.

Soha faoliyatiga oid masalalarning o'rganilish darajasi shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda fuqaro muhofazasi va favqulodda vaziyatlarda aholi xavfsizligini ta'minlash, tabiiy ofatlarning oqibatlarini bartaraf etish masalalarining u yoki bu jihatlari o'rganilgan bo'lib, aynan fuqaro muhofazasi va Favqulodda vaziyatlar vazirligi faoliyatiga yaxlit kompleks tizim sifatida yondashilmagan.

Mavzuga oid uchinchi guruhga kiruvchi AQSH va Yevropa davlatlarida olib borilgan tadqiqotlarda dunyo miqyosida fuqaro muhofazasini ta'minlash bilan bog'liq jarayonlar muhim masala ekanligi, har yili yer yuzida turli xil favqulodda vaziyatlar ro'y berishi, ko'plab insonlarning halok bo'lishi va turli darajada

Vaziyat. 2018, №5.; Актуальные проблемы обеспечения пожарной безопасности объектов хранения и транспорта газа. // *Yong'in xavfsizligi* 1 (77), 2012. – С. 18-19. Maxmanova X. Mamlakat mudofaa tizimini mustahkamlashda Havo hujumidan mudofaa va Harbiy-havo kuchlari qo'shinlarining tashkil etilishi. // *Samo qalqonlari*. 2023, № 2(6). – B. 58-62.; Maxmanova X. O'zbekistonga harbiy aviasiyaning kirib kelish tarixi. // *Zirhli qalqon*. 2024, № 19(33). – B. 224-230.

⁹ O'zbekiston Respublikasi Hukumati va Rossiya Federatsiyasi Hukumati o'rtasida 1998-yil 6-may kunidagi "Fuqaro himoyasi (mudofaasi), favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bartaraf etish sohasida hamkorlik to'g'risida"gi bitim; O'zbekiston Respublikasi Hukumati va Tojikiston Respublikasi Hukumati o'rtasida 2000-yil 30-may kunidagi "Sarez ko'li o'pirilib chiqqan taqdirda o'z vaqtida xabardor qilish masalalari bo'yicha qo'shma faoliyat va o'zaro hamkorlik to'g'risida"gi Bitim; O'zbekiston Respublikasi Hukumati bilan Latviya Respublikasi Hukumati o'rtasida 2008-yil 6-oktabrdagi "Favqulodda vaziyatlarni oldini olish va bartaraf etish sohasida hamkorlik to'g'risida"gi Bitim; O'zbekiston Respublikasi Hukumati bilan Turkmaniston Hukumati o'rtasida 2013-yil 25-noyabr kuni "Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va oqibatlarini bartaraf etish sohasida hamkorlik to'g'risida"gi Bitim; O'zbekiston Respublikasi Hukumati bilan Ozarbayjon Respublikasi Hukumati o'rtasida 2015-yil 19-may kuni "Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish sohasida hamkorlik to'g'risida"gi Bitim.

¹⁰ Shanxay hamkorlik tashkilotiga a'zo davlatlar hukumatlari o'rtasida 2005-yil 26-oktabr kuni "Favqulodda vaziyatlarni bartaraf etishda yordam ko'rsatish bo'yicha hamkorlik to'g'risida"gi Bitim; Shanxay hamkorlik tashkilotiga a'zo davlatlar hukumatlari o'rtasida 2012-yil 5-dekabr kuni "Favqulodda vaziyatlarni bartaraf etishda yordam ko'rsatish bo'yicha hamkorlik to'g'risidagi 2005-yil 26-oktabrdagi Bitimi"ga Protokol.

¹¹ MDHga a'zo davlatlar Hukumat rahbarlari kengashining 2001-yil 29-noyab kunidagi "Tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlar oqibatlarini bartaraf etishda MDHga a'zo davlatlarning o'zaro hamkorligini tashkil etish tartibi to'g'risida"gi Qarori; MDHga a'zo davlatlar hukumatlari o'rtasida 2002-yil 30-may kunidagi "Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga a'zo davlatlarning elektr energetika obyektlarida avariya va boshqa favqulodda vaziyatlar sodir bo'lganda o'zaro yordam ko'rsatish to'g'risida"gi Bitim; MDHga a'zo davlatlar hukumatlari o'rtasida 2003-yil 18-sentabr kunidagi "Tabiiy va texnogen xususiyatdagi favqulodda vaziyatlar to'g'risida ma'lumot almashish, ularning oqibatlarini bartaraf etish va jabrlangan aholiga yordam ko'rsatishda axborot bilan o'zaro hamkorlik qilish to'g'risida"gi Bitim; Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga a'zo davlatlar o'rtasida 2015-yil 16-oktabr kuni "Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va oqibatlarini bartaraf etish sohasida hamkorlik to'g'risida"gi Bitim.

jarohatlar olayotgani sababli bu boradagi ishlarni takomillashtirish, inson xavfsizligi, fuqaro muhofazasi va yong'in-qutqaruv xizmati organlarining faoliyatini kuchaytirish zarurligi kabi masalalar yoritilgan.

Jumladan, xorijlik mualliflar William A.Anderson, Mansour Hoda Khodr, Dr Jan Pilzys, Shawna Lynn Kozisek, Leo Lin¹² va boshqalarning tadqiqotlarida favqulodda vaziyatlarning insoniyat hayotiga keltirgan ko'plab talofatlari, ularning oqibatlarini xususida fikr yuritiladi. Shu bilan birga, ko'p hollarda harbiy harakatlar va favqulodda vaziyat bilan bog'liq hollarda insonlarning hayotini saqlab qolish, favqulodda vaziyatlarni oldini olish, ularga tayyorgarlik ko'rish va talofatlarini kamaytirish kabi masalalar ham ushbu ishlarda atroflicha tahlil etilgan.

Alohida qiziqish uyg'otgan Geist Edward Moorening tadqiqotida¹³ dastlab, fuqaro mudofaasi faqat dushmanning havo hujumi oqibatlariga e'tibor qaratgan bo'lsa, 1991-yilga kelib, Amerika va Sovet Ittifoqi fuqaro mudofaasi nafaqat yadro urushi, balki sanoat avariylari va tabiiy ofatlarning oqibatlarini yumshatish uchun tayyorgarlikni nazorat qilganligi keltirib o'tilgan.

Heinz-Gerhard Haupt o'zining tadqiqot ishida Sovet Ittifoqi Fuqaro mudofaasi qo'shinlarining Ikkinchi jahon urushi yillarida ko'rsatgan jasorati haqida yoritib bergan¹⁴.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi tarkibiga kiruvchi davlatlarda ham soha tarixiga oid bir qator izlanishlar qilinganini kuzatish mumkin. Xususan, Rossiya Federatsiyasidagi adabiyot¹⁵ va tadqiqotlarda¹⁶, shuningdek, Qozog'iston¹⁷ Qirg'iziston¹⁸ va Tojikiston Respublikalarida¹⁹ e'lon qilingan nashrlarda tabiiy

¹² William A.Anderson. "Local Civil defense in natural disaster: from office to organization" monograph. Office of Civil. Defense Office of the Secretary of the Army Washington, D.C, 1969; Mansour Hoda Khodr. "Civil Defense in the Republic of Lebanon: an exploratory study" Thesis. M.A. American University of Beirut. Department of Political Studies and Public Administration, 2015.; Dr Jan Pilzys. "Civil Defense as a Scientific Research Area" International Journal of Humanities Social Sciences and Education. 2017, 4(12). – P. 11-22.; Shawna Lynn Kozisek. "British Government Policies and Civil Defense during the Blitz", 2021; Leo Lin. "Civil defense and emergency preparedness in Taiwan" Taiwan Center for Security Studies, 2022.

¹³ Geist Edward Moore "Two worlds of civil defense: state, society, and nuclear survival in the USA and USSR, 1945-1991", 2023.

¹⁴ Haupt H.G., "Historische Komparatistik in der internationalen Geschichtsschreibung" in Transnationale Geschichte. Themen, Tendenzen und Theorien eds. Gunilla Budde et.al. Vandenhoeck Ruprecht: Gottingen, 2006.

¹⁵ Емельянов М., Коханов В, Некрасов П. Защита населения и территорий в чрезвычайных ситуациях. – Москва. 2003.; Емельянов М., и др. Защита население и территории в чрезвычайных ситуациях. – Москва, 2005; Организация защиты населения и территорий от чрезвычайных ситуаций. – Москва: Галерея, 2008.; Шульгин В. Инженерная защита населения и территорий в чрезвычайных ситуациях мирного и военного времени. – Москва. 2010.; Акимов В.А., Соколов Ю.И. Глобальные и национальные приоритеты снижения риска бедствий и катастроф / МЧС России. – Москва: ФГБУ ВНИИ ГО ЧС (ФЦ), 2016; Эйби Д. Землетрясение. – Москва: Недра, 2016.

¹⁶ Сергеев В. Деятельность Российского государства по созданию системы защиты населения и территорий страны в чрезвычайных ситуациях природного и техногенного характера (1991 - 2005 гг.). Дисс. докт. ист. наук. – Москва. 2007.; Ралитная О. Чрезвычайные ситуации как обстоятельства введения чрезвычайного положения. Дисс. канд. юрид. наук. – Москва. 2008.; Бугов С. Правовое положение военнослужащих войск НКВД СССР на фронтах Великой отечественной войны: историко правовой аспект. Дисс. канд. юрид. наук. – Санкт-Петербург, 2024.

¹⁷ Национальный ситуационный анализ безопасности территории Республики Казахстан от природных и техногенных бедствий (методические основы). Коллектив авт. – Астана, 2015.; Есмагамбетова М. Информационно-аналитическая система управления деятельностью аварийно - спасательной службы. Дисс. степ. докт. философии (PhD). – Астана, 2024.

¹⁸ Токомбаева. А. Проблемы совершенствования системы безопасности Кыргызской Республики в чрезвычайных ситуациях. Дисс. канд. полит. наук. – Бишкек, 2010. Маметов Р., Боранбаева Э. Чрезвычайные ситуации в Кыргызской Республики; некоторые аспекты лечебно-эвакуационного

ofatlar va boshqa favqulodda holatlar yuz berganda aholining xavfsizligi va muhofazasini ta'minlash masalalari yoritilgan.

Xulosa qilib shuni ta'kidlash lozimki, tanlangan mavzu doirasidagi adabiyotlar va ilmiy tadqiqotlarda O'zbekistonda Fuqaro muhofazasi va Favqulodda vaziyatlar tizimining tashkil etilishi va faoliyati to'liq o'rganilmagan. Shu jihatdan tadqiqot ishining oldiga qo'yilgan alohida masalalarini yaxlit tushunish va muammolarni aniqlab tahlil etishda kompleks yondashuv dissertasiyaning dolzarbligini belgilaydi.

Tadqiqotning maqsadi O'zbekistonda fuqaro muhofazasi va Favqulodda vaziyatlar vazirligi tizimining shakllanishi va rivojlanishi bosqichlarini, aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish borasidagi xalqaro aloqalarni ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning asosiy vazifalari:

1932-1961-yillarda havo hujumidan mahalliy mudofaa tizimining shakllanishi, uning tashkil etilishi sabablari, vazifa va vakolatlarini tarixiy tahlil qilish;

Ikkinchi jahon urushi davrida aholining xavfsizligini ta'minlash borasida olib borilgan chora-tadbirlar, fuqaro muhofazasi mexanizmlarini o'rganish;

urushdan keyingi davrda (1946-1961-yillarda) mudofaa tizimining faoliyati, tizimdagi o'zgarishlar va uni rivojlantirish yo'llarini tahlil qilish;

1961-1990-yillarda havo hujumidan mahalliy mudofaa tizimining Fuqaro mudofaasi tizimiga aylantirilishi, uning tashkiliy-huquqiy asoslarini aniqlash;

Fuqaro mudofaasi tizimining tabiiy ofatlar va texnogen xavflarning oqibatlarini bartaraf etishdagi o'rni va amaliy faoliyatini tahlil qilish;

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, Fuqaro muhofazasi tizimining qayta tashkil qilinishi va Favqulodda vaziyatlar vazirligining tuzilishini o'rganish;

favqulodda vaziyatlar sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimining shakllanishi va rivojlanishini, maxsus o'quv muassasalari faoliyatini o'rganish;

favqulodda vaziyatlarda aholining xavfsizligini ta'minlash borasida olib borilayotgan xalqaro hamkorlik yo'nalishlarini tahlil qilish, xalqaro tajribaning milliy tizimga ta'sirini aniqlash;

tadqiqot davomida yig'ilgan tarixiy, huquqiy va amaliy materiallar asosida fuqaro muhofazasi tizimi rivojlanishining asosiy bosqichlari va tendensiyalarini aniqlash;

tadqiqot natijalariga asoslangan holda, fuqaro muhofazasi tizimini takomillashtirishga oid ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti 1932-2021-yillar oralig'ida O'zbekiston hududida faoliyat yuritgan havo hujumidan mahalliy mudofaa hamda fuqaro mudofaasi va

обеспечение в системе гражданской защиты населения. // Здоровье и образование ч XXI век. 2019, №2. – С.17-20.

¹⁹ Хакимов Ш.А., Нуртаев Б.С. Землетрясение: как защитить себя от грозной стихии. – Душанбе: Полиграф групп, 2008; Джумаев А. Устойчивое социально-экономическое развитие региона: состояние и перспективы (на примере Согдийской области Республики Таджикистан). Дисс. канд. эконом. наук. – Худжанд, 2019.

favqulodda vaziyatlar tizimining shakllanishi va rivojlanishi masalalari hisoblanadi.

Tadqiqotning predmetini havo hujumidan mahalliy mudofaa tizimining tarixi, fuqaro muhofazasi va Favqulodda vaziyatlar vazirligining tashkiliy-huquqiy asoslari, aholining tabiiy va texnogen xatarlar oldidagi xavfsizligini ta'minlashga doir davlat siyosati hamda sohadagi xalqaro hamkorlik aloqalari kabi masalalar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda tarixiy-qiyosiy, muammoli-xronologik, obyektivlik, tizimli tahlil, tarixiy-huquqiy tahlil, analiz va sintez, og'zaki tarix (oral history) kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Aholini havo hujumlaridan asrash uchun tashkil etilgan havo hujumidan mahalliy mudofaa tizimi Ikkinchi jahon urushi yillarida O'zbekistonda aholini kimyoviy qurollardan muhofaza qilish, evakuatsiya tadbirlarini tashkil etish, shuningdek, tizim tarkibidagi sanitar drujinalar respublikaning ayrim hududlarida tarqalgan yuqumli kasallikni bartaraf etishda muhim rol o'ynagani, sohaning transformatsiya qilinishi natijasida tashkil etilgan fuqaro mudofaasi tizimi tinchlik davrida aholi va hududlarni (toifalangan va strategik obektlar, aloqa tizimlari) muhofazasini ta'minlashga yo'naltirilib, tegishli tuzilmalarning faoliyati yo'lga qo'yilgani, bu borada respublika aholisini turli ko'rinishdagi favqulodda vaziyatlarga tayyorlangani aniqlangan;

1960-yillarda O'zbekistonda Fuqaro mudofaasi faoliyati tubdan yangilanib, joylardagi obekt mashg'ulotlarini tashkil etish va umumaholining tayyorgarlik darajasini oshirishga alohida e'tibor qaratilishi, shu davrda O'zbekistonda sodir bo'lgan tabiiy ofatlarning oqibatlarini bartaraf etishda, ya'ni elektr energiyasi, aloqa, ichimlik suvi, oziq-ovqat va moddiy-texnik ta'minot tarmoqlarini tiklash ishlarida faol ishtirok etgani isbotlangan;

Mustaqillik yillarida sohada amalga oshirilgan strukturaviy o'zgarishlar negizida fuqaro muhofazasi tizimi turli xil favqulodda vaziyatlarda aholi xavfsizligini ta'minlash jarayonida ularning funksional vazifalari suv, avariya, tog' qutqaruv, radiatsion, kimyoviy va bakteriologik muhofazasiga hukumat darajasida yo'naltirilib, jumladan, Buxorodagi tabiiy ofat, Sardoba voqealari va koronavirus pandemiyasi bilan bog'liq murakkab vaziyatda ular tezkor ravishda faoliyat olib borgan dalillangan;

soha faoliyatini rivojlantirish jarayonida yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash (tizimda kadrlar tayyorlash va malkasini oshirish uchun bir qator maxsus o'quv dargohlarning faoliyati yo'lga qo'yildi) va xalqaro aloqalarni rivojlantirish orqali favqulodda vaziyatlar sohasida samarali davlat boshqaruv mexanizmi yaratilib, bu yutuqlar mamlakat aholisini va hududlarini favqulodda vaziyatlardan samarali himoya qilish hamda xavfsiz yashash muhitini ta'minlash uchun mustahkam poydevor yaratganligi aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

O'zbekistonda fuqaro muhofazasi va Favqulodda vaziyatlar vazirligi faoliyatini yanada takomillashtirish, sohadagi muammolarini hal etishga xizmat qiluvchi amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan;

tadqiqot ishida ilgari surilgan ilmiy g'oyalar, keltirilgan materiallar va xulosalardan mustaqillik davri tarixiga oid darsliklar, o'quv qo'llanmalar yaratishda, fuqaro muhofazasi tizimida bo'lgan o'zgarishlarni yoritishda, fuqaro muhofazasi va Favqulodda vaziyatlar vazirligi tizimida kadrlar tayyorlash va malakasini oshirish tadbirlarini amalga oshirishda qo'llanishi bilan izohlanadi;

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqotda tarix fanida tan olingan yondashuv va usullarning qo'llanilgani, katta hajmdagi arxiv hujjatlari, adabiyotlar va esdaliklardan foydalanilgani, ularning aksariyati birlamchi manbalarga asoslanilgani, xulosa, taklif va tavsiyalarining amaliyotda joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi;

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati sovet davri va mustaqillik yillarida O'zbekiston havo hujumidan mahalliy mudofaa, fuqaro mudofaasi hamda Favqulodda vaziyatlar vazirligi faoliyatini tarixiy-qiyosiy, muammoli-xronologik usullar asosida, obyektivlik tamoyiliga tayanib tuzilmaviy-tizimli tahlil asosida yoritilgani bois ulardan mazkur muammoga oid nazariy xulosalarni mukammallashtirishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi muzeyi ekspozitsiyalarini tarixiy dalillar bilan boyitish, shuningdek, tizim tarixi bo'yicha Favqulodda vaziyatlar vazirligi huzuridagi o'rta maxsus va oliy ta'lim muassasalarining tinglovchi va kursantlari uchun darslik hamda o'quv qo'llanmalar yaratishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O'zbekiston hududida faoliyat yuritgan fuqaro muhofazasi va favqulodda vaziyatlar tizimining shakllanishi va rivojlanishini o'rganish bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijalari asosida:

O'zbekiston hududida fuqarolarni harbiy xavf-xatarlardan, tabiiy va texnogen xatarlardan, himoya qilish tizimining shakllanishi, 1932-yildan boshlab havo hujumidan mahalliy mudofaa tizimining tashkil topishidan tortib, mustaqillikdan keyingi yillarda fuqaro muhofazasi tizimining yangilanishigacha bo'lgan tarixiy bosqichlar chuqur tahlil etilgan bo'lib, ushbu tadqiqot natijalari Chirchiq oliy tank qo'mondonlik-muhandislik bilim yurtida o'qitilayotgan "Harbiy startegiya asoslari", "Harbiy tarix" va "Jangovor tayyorgarlik" fanlari tarkibiga kiritilgan fuqaro muhofazasi tarixi bilan bog'liq masalalarni yoritishda strategik tahlil materiallari sifatida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Mudofaa Vazirligining 2025-yil 2-maydagi 10/956-sonli ma'lumotnomasi). Ushbu tadqiqotning natijalari harbiy ta'lim muassasalarida fuqaro muhofazasi tarixiy tajribasidan foydalanishga, zamonaviy xavf-xatarlarga nisbatan strategik yondashuv, tizimli fikrlash va tezkor harakatlanish qobiliyatiga ega harbiy kadrlarni tayyorlashga xizmat qilgan.

Ikkinchi jahon urushi yillarida fuqaro muhofazasi tizimida amalga oshirilgan o'zgarishlar va aholi muhofazasini ta'minlash borasida olib borilgan chora-tadbirlar, xalq xo'jaligi obektlarini va hududlarini himoya qilish, havo hujumidan mahalliy mudofaa tizimi shahar va qishloqlarning hayotini saqlab qolishda eng muhim vazifalarni bajargani, tizim kuchli bo'lgan joyda dushman

o‘zining vayron qilish rejalarini amalga oshira olmagan, urushning oxiriga kelib, havo hujumidan mahalliy mudofaa tizimi vayron bo‘lgan shaharlar hayotini saqlab qolish borasida turli xil harbiy va iqtisodiy vazifalarni bajargani, havo hujumidan mahalliy mudofaa xodimlari mamlakatning urushdan xoli bo‘lgan qismini himoya qilish bo‘yicha o‘z burchlarini yuqori darajada bajargani bilan bog‘liq ma‘lumotlardan O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi huzuridagi “G‘alaba bog‘i” yodgorlik majmuasi va “Shon sharaf” davlat muzeyining ekspozitsiyalarini boyitishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi huzuridagi “G‘alaba bog‘i” yodgorlik majmuasining 2025-yil 30-apreldagi 42/499-sonli dalolatnomasi). Qo‘llanilgan natijalar mazkur davrni faktik materiallar, manbalar va ma‘lumotlar bilan to‘ldirishga ko‘mak berib, havo hujumidan mahalliy mudofaa tizimi xodimlarining Ikkinchi jahon urushi yillaridagi faoliyatini ilmiy asosda yoritishga xizmat qilgan.

O‘zbekistonda fuqaro muhofazasi tizimining shakllanishi, davrlar kesimidagi rivojlanish bosqichlari, sohadagi institutsional o‘zgarishlar hamda xalqaro tajriba bilan aloqador yo‘nalishlari bo‘yicha olingan natijalar asosida Favqulodda vaziyatlar vazirligi Akademiyasida o‘tilayotgan “Milliy harbiy san’at tarixi” faniga “O‘zbekistonda fuqaro muhofazasi tizimi shakllanishi va tarixiy bosqichlari” nomli mavzu kiritilib, o‘quv jarayoniga tatbiq etilgan. Shuningdek, ilmiy izlanishlar natijalari asosida vazirlik tarixiga bag‘ishlangan “Favqulodda vaziyatlar vazirligi tarixi: kecha va bugun” nomli kitob-albomini tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi Ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar va kadrlar bilan ta‘minlash departamentining 2025-yil 23-iyundagi 28/4-1744 sonli ma‘lumotnomasi). Tadqiqot natijalari favqulodda vaziyatlar sohasida davlat siyosatining tarixiy ildizlarini ochib berib, bugungi kun uchun zarur bo‘lgan strategik qarorlarni tayyorlashda asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

Tadqiqot natijalarining aprobat siyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 10 ta, shu jumladan, 2 ta xorijiy va 8 ta respublika ilmiy anjumanlarida aprobat siyadan o‘tgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 21 ta ilmiy ishlar chop etilgan, shulardan O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan dissertatsiyalarning asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola (jumladan, 5 ta respublika va 3 ta xorijiy nashrlarda), respublika va xorijiy ilmiy-amaliy anjumanlar materiallarida 13 ta tezis chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan manba va adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovalardan iborat bo‘lib, tadqiqot qismi 156 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va o‘rganish zarurati, tadqiqotning davriy chegarasi, o‘rganilish darajasi, maqsad va vazifalari, ilmiy yangiligi hamda himoyaga olib chiqilayotgan asosiy masalalar bayon qilingan.

Dissertatsiyaning **“O‘zbekistonda fuqaro muhofazasini ta‘minlashda havo hujumidan mahalliy mudofaa tizimi tashkil etilishining tarixiy bosqichlari (1932-1961-yillar)”** deb nomlangan birinchi bobida fuqaro muhofazasini ta‘minlash doirasida havo hujumidan mahalliy mudofaa faoliyatining tashkil etilishi va amalga oshirish mexanizmlari, Ikkinchi jahon urushi yillarida tizimda amalga oshirilgan o‘zgarishlar va aholi muhofazasini ta‘minlash borasida olib borilgan chora-tadbirlar, shuningdek, Ikkinchi jahon urushidan keyin havo hujumidan mahalliy mudofaa tizimining faoliyatidagi xususiyatlar va sohadagi tarkibiy o‘zgarishlar ochib berilgan.

Insoniyat sivilizatsiyasi taraqqiyoti davomida qurolli mojarolar sodir bo‘lganda tinch aholining himoyasini ta‘minlash masalasi muhim vazifalardan biri bo‘lib kelgan. Tarixan olib qaraganda, 1914-1918-yillardagi Birinchi jahon urushi davomida aviatsiyaning keng qo‘llanilishi dushman hujumlariga qarshi samarali himoya choralarini ishlab chiqish zaruratini yuzaga keltirdi. Natijada havo hujumlariga qarshi mantiqiy javob sifatida havo mudofaa tizimi shakllana boshladi²⁰.

1920-yillardan Sovet davlati hududida havo mudofaasi tizimini yaratish va mustahkamlashga qaratilgan chora-tadbirlar o‘tkazila boshlagan bo‘lib, 1925-yilda Sovet Ittifoqi Harbiy Kengashi tomonidan mamlakat havo mudofaasini tashkil etishning umumiy tamoyillari ishlab chiqildi²¹. 1932-yil oxiridan boshlab esa ushbu faoliyat rasmiy ravishda “Havo hujumidan mahalliy mudofaa” tizimi doirasida tashkil etila boshlandi. Yangi nomlanish fuqaro muhofazasi sohasida maxsus tashkiliy strukturani shakllantirish jarayonining boshlanishidan dalolat berdi. Tizim nafaqat harbiy obyektlarni, balki aholining zich joylashgan hududlarini ham havo hujumlaridan himoya qilishga qaratilgan edi²². Mamlakatning havo mudofaasini yanada mustahkamlash maqsadida Mehnat va Mudofaa Kengashi tomonidan 1927-yil 14-mayda “SSSR hududini havo-kimyoviy mudofaasisini tashkil etish to‘g‘risida”gi qaror qabul qilindi²³. 1929-yilda Sovet Ittifoqi Xalq Komissarlari Sovetining qaroriga muvofiq mudofaa bo‘limlari tashkil etildi. Ularning tarkibiga muhandislik, kimyoviy himoya, razvedka va ichki kuzatuv xizmatlari kiritildi. Bunday tadbirlar doirasida 1930-yil 14-dekabrda O‘zbekiston SSR Xalq Komissarlari Soveti Toshkent havo hujumidan mudofaa punktida rahbarlarni tayyorlash uchun maxsus kurslar tashkil qilish to‘g‘risida qaror qabul qildi²⁴. Unga asosan, Mudofaa, aviatsiya va kimyo qurilishini qo‘llab-quvvatlash jamiyati (Осоавиахим) tashkilotlari havo hujumidan mudofaa obyektlarining boshlang‘ich va qo‘mondonlik tarkibini tayyorlashda faol ishtirok

²⁰ Лашков А. Ю. Организация защиты европейских держав от угрозы воздушного нападения накануне войны / Материалы III Международной научно-практической конференции. Первая мировая война: взгляд спустя столетие. Предвоенные годы. (28–29 ноября 2013 г., Москва). – Москва, 2014. – С. 395.

²¹ Войска противовоздушной обороны: исторический очерк. – Москва: Воениздат, 1968, – С. 31.

²² Егоров Ф.Е., Козачек Я.Я., Коржавин А.В., Медведев В.А. и др. Гражданской обороне СССР – 50 лет. Историческая справка. – Москва, 1982. – С. 21.

²³ Противовоздушная оборона СССР: Документы и материалы (1918–1941). – М.: Воениздат, 1962. – С. 87–88.

²⁴ Систематическое собрание действующих законов Узбекской советской социалистической республики / Упр. делами СНК УзССР. – Ташкент: Упр. делами СНК УзССР, 1931.

etdi. 1931-yil 24-martdan boshlab “Узбек Осоавиахим” huzurida havo hujumidan mudofaa instruktorlari kurslari faoliyat yurita boshladi. Shu yil boshida Toshkent shahar kengashi xalq xo‘jaligi obyektlari rahbarlariga havo hujumidan mudofaa otryadlarini tuzish bo‘yicha ko‘rsatmalar yubordi.

Natijada 1931-yildan boshlab Toshkent shahridagi muhim obyektlarda havo hujumidan mudofaa otryadlari tashkil etila boshladi²⁵. 1932-yil 4-oktabrda Sovet Ittifoqi Xalq Komissarlari Kengashining qarori bilan “SSSR hududini havo hujumidan mudofaa qilish to‘g‘risida”gi Nizom tasdiqlandi. Mazkur hujjatda mamlakat hududini havo hujumidan bevosita himoya qilishga doir chora-tadbirlar va texnik vositalar aniq belgilab berildi²⁶.

1936-yil 28-fevralda O‘zbekiston SSR XKSning 10/183-sonli farmoni bilan “O‘zbekiston SSR hududida aholining havo hujumidan himoyasini tashkil etish to‘g‘risida”gi Nizom tasdiqlandi²⁷. Mazkur hujjat havo hujumidan mudofaa sohasidagi tashkiliy va amaliy faoliyatni huquqiy jihatdan tartibga solishga xizmat qildi²⁸. Nizomda belgilangan vazifalar doirasida 1937-yil 23-25-sentabr kunlari Toshkent shahrining Oktyabr va Kuybishev tumanlaridagi obyektlarda havo hujumidan mahalliy mudofaa shtablari va xizmatlari ishtirokida ilk o‘quv mashg‘uloti tashkil etildi²⁹. Ushbu mashg‘ulotlar aholi va obyektlarning havo hujumidan mudofaa tayyorgarligini oshirishga qaratilgan bo‘lib, havo hujumidan mahalliy mudofaa tizimining amaliy faoliyatini mustahkamlashda muhim bosqich sifatida baholandi. Shu tariqa, Ikkinchi jahon urushi arafasida O‘zbekistonda havo hujumidan mahalliy mudofaa qo‘shinlarining safdorlari va qo‘mondonlarining jangovar tayyorgarligini oshirish muhim yo‘nalishlardan biri sifatida belgilandi.

Ikkinchi jahon urushi yillarida Sovet hukumati tomonidan davlat, mudofaa va jamoat tashkilotlariga mamlakatning ichki resurslar zaxirasini safarbar qilish, aholini va iqtisodiy infratuzilma obyektlarini havo hamda kimyoviy hujumlarga tayyorlash bo‘yicha tezkor vazifalar yuklatildi. Jumladan, 1941-yil 2-iyulda O‘zbekiston SSR hukumati tomonidan “Aholini havo hujumidan va kimyoviy hujumlardan mudofaa qilish bo‘yicha majburiy tayyorgarlik choralari” to‘g‘risidagi qaror qabul qilindi³⁰. Mazkur qarorga asosan, respublika miqyosida tegishli boshqaruv tuzilmalari havo hujumidan mahalliy mudofaa shtablari bilan hamkorlikda aholini zamonaviy mudofaa vositalaridan foydalanishga hamda kimyoviy hujumlarga qarshi tayyorlash bo‘yicha tizimli choralar amalga oshirila boshlandi. Bunda 16 yoshdan 60 yoshgacha bo‘lgan shaxslar umumiy mudofaa tayyorgarligiga, 8-16 yosh oralig‘idagi bolalar esa havo hujumi vaqtida birlamchi

²⁵ O‘zMA, R-837-fond, 26-ro‘yxat, 345-ish, 26-varaq.

²⁶ O‘zMA, R-837-fond, 26-ro‘yxat, 345-ish, 26-varaq.

²⁷ O‘zMA, R-837-fond, 27-ro‘yxat, 24-ish, 101-varaq.

²⁸ Mazkur hujjat O‘zbekiston hududida havo hujumidan mudofaa tizimini shakllantirish bo‘yicha qabul qilingan ilk normativ-huquqiy asoslardan biri sifatida alohida ahamiyatga ega bo‘lgan. “O‘zbekiston SSR hududida aholining havo hujumidan himoyasini tashkil etish to‘g‘risida”gi Nizomga muvofiq, aholini havo hujumidan mahalliy mudofaaga jalb etish, ularni tayyorlash hamda korxona, muassasa, jamoat tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirish vakolati bevosita shahar va tuman kengashlariga yuklatilgan. Shu munosabat bilan mazkur kengashlar tarkibida havo hujumidan mahalliy mudofaa seksiyalari, shuningdek, doimiy faoliyat yurituvchi “Havo hujumidan mahalliy mudofaa sektori” tashkil etilgan.

²⁹ O‘zMA, R-837-fond, 27-ro‘yxat, 25-ish, 33-varaq.

³⁰ Компартия Узбекистана в годы Великой Отечественной войны. Летопись событий. – Ташкент: Узбекистан, 1980. – С. 11.

himoya vositalaridan foydalanish bo'yicha amaliy mashg'ulotlarga qamrab olindi. Arxiv manbalarida keltirilishicha, 1941-yil 26-iyul holatiga ko'ra, Toshkent viloyatida 1528 ta, Namangan viloyatida 130 ta, Xorazm viloyatida 360 ta, Farg'ona viloyatida 899 ta, Samarqand viloyatida 701 ta hamda Qoraqalpog'iston ASSRda 243 ta o'z-o'zini mudofaa qilish guruhleri tashkil etilgan³¹.

1941-1943-yillarda Respublika bo'ylab kimyoviy havo hujumidan mudofaa bo'yicha aholi o'rtasida 7000 marta ma'ruza va suhbatlar o'tkazilgan. 160 ming kishi ishtirokida 1900 ta gazga qarshi himoya o'quv mashg'ulotlari tashkil qilinib³², urush davrida aholining, xalq xo'jaligi obyektlari va hududlarning himoyasi davlatning eng muhim vazifalaridan biri ekanligi ko'rsatildi.

Urushdan keyingi dastlabki yillarda havo hujumidan mahalliy mudofaa tizimining tashkiliy tuzilmasi asosan saqlanib qolingani edi. Biroq tinchlik davriga o'tish munosabati bilan ushbu tizim qayta ko'rib chiqilib, 1945-yil 24-oktabrda SSSR MIQning qaroriga binoan havo hujumidan mahalliy mudofaa tizimining boshqaruv organlari sezilarli darajada qisqartirildi. Mazkur qarorga muvofiq, shahar bo'linmalari ham tugatilib, umumiy shtat soni 58980 nafar xodimga qisqartirilishi belgilandi³³. Natijada sohaga ajratiladigan mablag'larning hajmi kamaytirilib, xodimlarning soni keskin qisqartirila boshladi. Biroq AQSh va Sovet Ittifoqi o'rtasidagi munosabatlarning keskinlashuvi havo hujumidan mudofaa masalasining dolzarbligini yana kuchaytirdi. Tizimni rivojlantirishga e'tibor berilishi natijasida, 1952-yil 31-iyulda O'zbekiston SSR XKS tomonidan "O'zbekiston SSRda 1953-1955-yillarda havo hujumidan mahalliy mudofaa himoya inshootlarini qurish rejasi to'g'risida"gi qaror qabul qilindi³⁴. Mazkur qarorning ijrosini ta'minlash Toshkent va Samarqand shaharlaridagi boshpana va panagohlarning faoliyati qayta tiklanib, ular zarur asbob-anjomlar bilan ta'minlandi.

1955-yil 23-iyuldagi O'zbekiston SSR XKSning "O'zbekistonda havo hujumidan mahalliy mudofaa tizimini mustahkamlash" to'g'risida"gi 510/41-sonli farmoyishiga asosan³⁵, respublika vazirliklari va idoralari negizida 2 ta respublika xizmati tashkil etilib, uning tarkibiga tibbiy, qutqaruv, boshpana va panagohlar xizmatlari, jamoat tartibini muhofaza qilish, transport, yo'llar va ko'priklar, sug'orish, aloqa va ogohlantirish, savdo va oziq-ovqat, yorug'lik va elektr ta'minoti guruhleri kiritildi.

Umuman olganda, bu yillarda havo hujumidan mahalliy mudofaa tizimi xalq xo'jaligini himoya qilish, bolalar va nogiron aholini evakuatsiya qilish rejalarini ishlab chiqish, shaharlar va xo'jalik obyektlarida muhandislik-texnik tadbirlarni o'tkazish, aholini umummajburiy o'qitish, zamonaviy qurollardan himoya qilish, havo hujumlari xavfi haqida aholini o'z vaqtida ogohlantirishni ta'minlash, himoya inshootlarini qurish kabi ishlarni bajardi.

³¹ O'zMA, R-837-fond, 27-ro'yxat, 169-ish, 87-varaq.

³² O'zMA, R-837-fond, 27-ro'yxat, 364-ish, 6-varaq.

³³ Местная противовоздушная оборона в годы Великой Отечественной войны (1941–1945). Документы и материалы. – М.: Воениздат, 1968. – С. 412–414.

³⁴ O'zMA, 2228-fond, 1-ro'yxat, 26-ish, 4-varaq.

³⁵ O'zMA, 2228-fond, 1-ro'yxat, 80-ish, 121-varaq.

Dissertatsiyaning **“O‘zbekistonda fuqaro mudofaasi tizimining tashkil etilishi va faoliyati (1961-1990-yillar)** deb nomlangan ikkinchi bobida havo hujumidan mahalliy mudofaa tizimining fuqaro mudofaasi tizimiga aylantirilishi, uning vazifa va vakolatlaridagi o‘zgarishlar hamda fuqaro mudofaasi tizimining O‘zbekistondagi tabiiy ofatlarning oqibatlarini bartaraf etishdagi ishtiroki tahlil etilgan.

XX asrning 50-60-yillarida dunyo miqyosidagi harbiy-siyosiy ziddiyatlar fonida ittifoq miqyosida mavjud bo‘lgan havo hujumidan mahalliy mudofaa tizimi talabga javob bermasligi hukumat tomonidan - qayd etildi. Shu sababli, 1961-yil iyul oyida havo hujumidan mahalliy mudofaa tizimi o‘rniga fuqaro mudofaasi tizimi joriy qilindi³⁶. Yangi tizim Sovet Ittifoqining barcha hududlarini qamrab olgan markazlashtirilgan boshqaruv asosida tashkil etildi. Fuqaro mudofaasi tizimida tibbiyot, aloqa, muhandislik, oziq-ovqat va moddiy-texnika ta‘minoti, yong‘in xavfsizligi kabi asosiy xizmatlar qayta tashkil qilinib, ularning harakatlanish, tezkorlik, evakuatsiya qilish, yadro tahdidlariga qarshi muhandislik yechimlarini ishlab chiqish kabi jihatlari takomillashdi.

1961-yil iyulda SSSR “Fuqaro mudofaasi to‘g‘risida”gi Nizom qabul qilindi. Unda Fuqaro mudofaasi – bu tinchlik davrida aholini va xalq xo‘jaligini qurolli hujumlar oqibatlaridan himoya qilishga qaratilgan davlat miqyosidagi kompleks tadbirlar tizimi sifatida ta‘riflandi³⁷. Fuqarolarni himoya qilishning asosiy strategik usuli (vazifasi) sifatida ularni potensial xavf hududlaridan ya‘ni yirik shahar va sanoat markazlaridan nisbatan xavfsiz bo‘lgan shahar atroflari va qishloq hududlariga vaqtincha ko‘chirish (evakuatsiya) va tarqatib joylashtirish belgilandi.

Bunday strategiyaning amaliy ifodalaridan biri 1964-yil 24-aprelda yuz bergan favqulodda vaziyatda yaqqol namoyon bo‘ldi. Samarqanddan 60 km uzoqlikdagi Zarafshon daryosi havzasida tog‘ jinslarining ko‘chishi oqibatida balandligi 200 metr, kengligi 400 metr bo‘lgan to‘g‘on hosil bo‘ldi³⁸. Oqibatda Samarqand shahri va unga tutash tumanlarda joylashgan aeroport, suv nasos stansiyalari, gaz va elektr tarmoqlari, temiryo‘l va avtomobil infratuzilmalari, shuningdek 34 ming gektar sug‘oriladigan yerlar xavf ostida qoldi. Bunday vaziyatda fuqaro mudofaasi xodimlari aholini zudlik bilan xavfli hududlardan evakuatsiya qilish, muhim obyektlarni muhofaza qilish va suv to‘g‘onini nazorat ostida ushlab turish bo‘yicha tezkor choralarni ko‘rdi. Bu hodisa fuqaro mudofaasi tizimining real sinov maydoniga aylanishiga sabab bo‘ldi va mavjud infratuzilmaning zaif tomonlarini ochib berdi. Jumladan, tezkor aloqa va texnika vositalarida ayrim uzilishlar kuzatildi.

1965-yil avgustda Qoraqalpog‘iston va Xorazm hududlarida vabo epidemiyasi xavfi yuzaga keldi. Sog‘liqni saqlash vazirligi bilan birga fuqaro mudofaasi tuzilmalari ham epidemiyaga qarshi kurashda faol ishtirok etdi. Tibbiy-

³⁶ Алексеев И. Гражданская оборона и время // Гражданская защита. 2011, № 10. – С. 6-11.

³⁷ Атаманюк Г., Ширшев Л., Акимов Н. Гражданское оборона. Учебник. – Москва: Высшая школа, 1986. – С.54.

³⁸ Пирназаров Р.Т., Хикматов Ф.Х. Тўғонли кўлларнинг гидрометеорологик режими ва улар хавфини камайтириш масалалари (Курбонқўл мисолида). – Тошкент: Фан ва технология, 2013. – Б. 25.

epidemiologik razvedka, karantin zonalarini tashkil etish, dezinfektsiya va aholiga ogohlik choralarini yetkazish fuqaro mudofaasi bo'linmalari zimmasiga yuklatildi³⁹. Karantin tadbirlarini ta'minlash uchun 450 nafar fuqaro mudofaasi xodimlari safarbar etildi. Karantin davomida fuqaro mudofaasi va harbiy qismlarning shaxsiy tarkibi tomonidan karantin tartiblarini buzish holatlariga qarshi qat'iy choralar ko'rib, aniqlangan 77 ta huquqbuzarlikning 38 tasi bo'yicha materiallar prokuratura organlariga yuborildi. Shuningdek, fuqaro mudofaasi tibbiyot xizmati xodimlari O'zbekiston SSR Hukumati tomonidan yetkazib berilgan 474 ming doza vaksina bilan jami 353680 nafar fuqaroni emlashda qatnashdilar (1965-yil 31-avgust holatiga)⁴⁰. Ushbu epidemiya davrida fuqaro mudofaasi tibbiy xizmati xodimlari aholining sog'lig'ini saqlashda hal qiluvchi rol o'ynagan edi.

Tahlil etilayotgan yillarda, O'zbekistondagi yirik tabiiy ofatlardan biri bu - Toshkent shahrida sodir bo'lgan zilzila hisoblanadi (1966-yil 26-aprel)⁴¹. Zilzila oqibatida Toshkentning markaziy hududlarida ko'plab uy-joylar, binolar, kasalxonalar, maktablar, fabrika va korxonalar jiddiy zarar ko'rdi. Umumiy hisobda 68 mingga yaqin oila boshpanasiz qoldi⁴². Zilzila oqibatlariga qarshi kurashishda fuqaro mudofaasi tuzilmalari muhim rol o'ynab (14 ta avariya-texnik guruh tashkil etilgan)⁴³ ularning tarkibidagi harbiy qism xodimlari vayronaga aylangan binolardan jabrlanganlarni olib chiqib, ularga birlamchi tibbiy yordam ko'rsatdi⁴⁴, shuningdek, asosiy aloqa tarmoqlari qayta ishga tushirildi. Fuqaro mudofaasi tibbiyot xizmati sanitar drujinalari chodirlarda faoliyat olib borib, jami 3000 bemorga mo'ljallangan vaqtinchalik davolash punktlarini tashkil etdilar. Shu tariqa, fuqaro mudofaasi tashkilotlari shaxsiy tarkibining mas'uliyatli harakati 1966-yilgi Toshkent zilzilasi oqibatlarini bartaraf etishda yaqqol namoyon bo'ldi.

1967-yil aprel oyining oxirlarida yuz bergan kuchli yog'ingarchilik natijasida Farg'ona vodiysidagi bir qator aholi punktlarini suv bosish xavfi yuzaga keldi. Suv toshqini oqibatlarini bartaraf etish uchun qutqaruv, yo'l va ko'priklar otryadlaridan iborat kuchlar (4 ming kishi va texnika) jalb etildi. Natijada xavf ostidagi hududlardan aholi o'z vaqtida evakuatsiya qilindi, boshpanasiz qolgan oilalar esa vaqtinchalik jamoat binolariga joylashtirildi⁴⁵.

Respublika fuqaro mudofaasi tizimi uchun jiddiy sinov 1976-yilda Buxoro shahridan 100 km janubi-g'arbda joylashgan Gazli yaqinida ro'y bergan kuchli zilzilalarda namoyon bo'ldi⁴⁶. Aprel va may oylarida ushbu hududda ikkita yirik yer silkinishi qayd etildi⁴⁷. Zilzila oqibatida asosiy infratuzilma obyektlarida og'ir

³⁹ Бурназян А.И. Вопросы профилактики и борьбы с чумными и вибриозными инфекциями в Средней Азии. – Москва: Медицина, 1971. – С. 74–76.

⁴⁰ O'zMA, R-837-fond, 11-ro'xat, 563-ish, 82-varaq.

⁴¹ Эгамбердиев М. Зилзила шуъласи. // Фан ва турмуш. 1966, № 9. – Б. 24.

⁴² Ликвидация последствий Ташкентского землетрясения // Государственный комитет Совета министров УзССР по делам строительству. – Ташкент: Узбекистан, 1972. – С.10.

⁴³ O'z MA, R-837-fond, 41-ro'xat, 542-ish, 212-varaq.

⁴⁴ Бубис И.И. Инженерный анализ последствий Ташкентского землетрясения 26 апреля 1966 года. // Журнал "Гражданская оборона СССР" № 5, 1966. – С. 33.

⁴⁵ В. Багутская. Я в мире - боец // "Сельская новь", 9 июня 1970 г., № 70. – С. 2.

⁴⁶ Матвиенко М. Офатдан устун. // Совет Ўзбекистони. 1984 йил 20 апрел. № 92 (18.864).

⁴⁷ Козьмин Н. Ликвидация последствий землетрясения // Правда Востока. 20 мая 1976. № 116.

vaziyat yuzaga keldi. Ayni vaqtda, fuqaro mudofaasi tizimining shaxsiy tarkibi elektr energiyasi, aloqa, ichimlik suvi, oziq-ovqat tarmoqlarini tiklash hamda aholini ko'chirish ishlarida faol ishtirok etdi (shaxsiy tarkib 1500 kishi, jalb etilgan texnik vositalar soni esa 100 tacha bo'lib, ular yordamida 2030 ta chodir o'rnatilgan)⁴⁸.

1980-yillarda fuqaro mudofaasi tizimida tibbiyot, aloqa, muhandislik, yong'in xavfsizligi, ularning harakatlanish, evakuatsiya qilish, yadro tahdidlariga qarshi yechimlarini ishlab chiqish kabi jihatlari yanada takomillashtirildi. Lekin 1985-yillarning ikkinchi yarmida jamiyatda yuzaga kelgan iqtisodiy qiyinchiliklar, mablag'ning yetishmasligi tizim faoliyatiga ham ta'sir qildi.

Xullas, fuqaro mudofaasi tizimida amalga oshirilgan strukturaviy o'zgarishlar natijasida soha faoliyati ancha yaxshilanib, ular O'zbekistonda sodir bo'lgan tabiiy ofatlarning oqibatlarini bartaraf etishda faol ishtirok etdilar. Xususan, ularning faoliyati respublikada sodir bo'lgan zilzilalar, tog' jinslarining ko'chishi, suv toshqinlari va turli hududlardagi epidemiya xavfi bilan bog'liq muammolarning yechimini topishda, aholiga yaqindan yordam ko'rsatishda namoyon bo'ldi.

Dissertatsiyaning **“O'zbekiston respublikasida favqulodda vaziyatlarda aholini ogohlantirish va bartaraf etishning yagona davlat tizimini barpo etilishi (1991-2021-yillar)”** deb nomlangan uchinchi bobida mustaqillik yillarida fuqaro muhofazasi tizimining rivojlanishi va O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligining tashkil etilishi, aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish borasidagi xalqaro aloqalar hamda sohada yuqori malakali mutaxassis kadrlar tayyorlash tizimining rivojlanishi kabi masalalar yoritilgan.

O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi e'lon qilinganidan so'ng, fuqaro muhofazasi masalasiga ham alohida e'tibor qaratila boshlandi. Tizimda mavjud bo'lgan kamchiliklar o'rganilib, favqulodda vaziyatlar sodir bo'lganda aholini xavfsizligini ta'minlash va obyektlarni himoya qilish bilan bog'liq jarayonlarni takomillashtirishga harakat qilindi. 1996-yil 4-martda O'zbekiston Prezidentining farmoniga muvofiq, Mudofaa vazirligi tasarrufidagi Fuqaro mudofaasi va favqulodda holatlar boshqarmasi negizida Favqulodda vaziyatlar vazirligi tashkil etildi⁴⁹. Farmonda ushbu tuzilma favqulodda vaziyatlarda davlat siyosatini shakllantirish va amalga oshirish hamda aholining xavfsizligini ta'minlashga oid kompleks chora-tadbirlarni yuritish bo'yicha vakolatli organ etib belgilandi⁵⁰. Ushbu islohotlar mamlakatda favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlik, muhofaza va barqarorlikni ta'minlashda tub burilish yasadi. Farmonga asosan, Favqulodda vaziyatlar vazirligi uchun jami 1785 (303 nafar ofitser, 38 nafar praporshik, 44 nafar harbiy xizmatchi, 139 nafar askar va sejanlar) shtat birligi ajratildi⁵¹. Kompleks chora-tadbirlarni jadallashtirish maqsadida 1994-yil 12-aprelda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Toshqin, sel

⁴⁸ Н.АКИМОВ.Газли: Промысел возобновел работу // Правда Востока. 24 марта 1984, № 71.

⁴⁹ O'zbekiston ovozi gazetasi, 1996-yil 5-mart, 28 (21.949)-son, 1-varaq.

⁵⁰ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligini tashkil etish to'g'risida” 1996-yil 4-martdagi PF-1378-son Farmoni. Xalq so'zi gazetasi, 1996-yil 5-mart, 46 (1299)-son.

⁵¹ O'zMA, M.37-fond, 1-ro'yxat, 3099-ish, 13-varaq.

oqimlarini oqizib yuborish va ko'chki hodisalari bilan bog'liq bo'lgan halokatli oqibatlarning oldini olish hamda ularni bartaraf etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaror qabul qilindi⁵². Qaror asosida fuqaro muhofazasi tezkor harakat qiluvchi kuchlari tashkil etilib, aholini muhofaza qilish va xavfli zonalaridan evakuatsiya qilish mexanizmlarini takomillashtirish ustuvor vazifa sifatida belgilandi⁵³.

1998-yil 8-iyul kuni Shohimardon qishlog'i⁵⁴ hududida sodir bo'lgan sel hodisasi mintaqa tarixidagi eng yirik va halokatli tabiiy ofatlardan biri sifatida baholanadi. Favqulodda vaziyatlar vazirligi ushbu murakkab sharoitda aholini himoya qilish, qutqaruv va tiklash ishlarini tashkil etish bo'yicha asosiy vakolatli organ sifatida faoliyat yuritdi⁵⁵. Ma'lumotlarda keltirilishicha, 2014-yil davomida respublika bo'yicha sel va toshqinlar bilan bog'liq favqulodda vaziyatlarning oldini olish maqsadida xavfli hududlarda istiqomat qiluvchi 173 ta xonadon (889 nafar aholi) xavfsiz joylarga ko'chirilib, hududlardagi vaziyatni doimiy nazorat qilish uchun 137 ta kuzatuv-nazorat postlari tashkil etilgan⁵⁶. Aholining favqulodda vaziyatlar sharoitida to'g'ri harakat qilishga tayyorgarligini oshirish doirasida gazeta va jurnallarda 946 ta maqola chop etildi.

Tahlil etilayotgan yillarda aholining xavfsizligini ta'minlash borasidagi islohotlar davomida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Favqulodda vaziyatlar tuzilmalarining faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha tashkiliy tadbirlar to'g'risida"gi 2019-yil 10 apreldagi PQ-4276-sonli Qaroriga muvofiq, IIV tarkibidagi Davlat yong'in nazorati Bosh boshqarmasi FVV tasarrufiga o'tkazildi⁵⁷.

2020-yil 1-may kuni Sirdaryo viloyatida joylashgan "Sardoba" suv ombori to'g'roning taxminan 100 pogon metr uzunlikdagi qismi yorilishi oqibatida Sardoba, Oqoltin va Mirzaobod tumanlarida 4700 ta xonadon, 77 ta ko'p qavatli uy, 40 ta ijtimoiy obyekt, 34 ming gektardan ortiq ekin maydonlari, 24 ta ko'prik, yuzlab kilometr yo'l infratuzilmasi tarmoqlari suv ostida qoldi. Favqulodda vaziyat oqibatlarini bartaraf etish uchun 21 ming nafar xodim, 3700 dan ortiq texnika va 200 ta motopompa jalb etilib⁵⁸, zaruriy tezkor chora-tadbirlar amalga oshirildi⁵⁹. Shunday holatlardan aholining xavfsizligini ta'minlash maqsadida 2021-yilda O'zbekiston Respublikasining xavfli hududlarida istiqomat qiluvchi jami 654 ta

⁵² O'zMA, M.37-fond, 1-ro'yxat, 1915-ish, 36-varaq.

⁵³ Masalan, 1996-yil Toshkent viloyatidagi hududlardan 278 ta xo'jalik, 1997-yilda esa 914 ta xo'jaliklar xavfsiz joylarga ko'chirildi. (O'zMA, M.37-fond, 1-ro'yxat, 1914-ish, 25-varaq).

⁵⁴ Ishonch gazetasi, 1998-yil 9-iyul, 80 (582)-son, 1-varaq.

⁵⁵ Ofat oqibatida 95 nafar fuqaro halok bo'lgan, xavfli hududlardan esa 17800 nafar aholi evakuatsiya qilingan, shu jumladan 3150 nafar bola sog'lomlashtirish va vaqtincha joylashtirish muassasalariga joylashtirilgan. Aholining ijtimoiy himoyasini ta'minlash maqsadida 3500 dan ortiq kishiga mo'ljallangan vaqtinchalik yashash joylari tashkil etildi.

⁵⁶ O'zbekiston Respublikasi FVV joriy arxivi, ish № 4-13, 1-yig'ma jild, 3-ich. ro'yxat, 2003, 23-varaq.

⁵⁷ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Favqulodda vaziyatlar tuzilmalarining faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha tashkiliy tadbirlar to'g'risida"gi 2019-yil 10-apreldagi PQ-4276-son Qarori. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.10.2025-y., 06/25/185/0956-son. (Yong'in xavfsizligi Bosh boshqarmasi va uning hududiy tuzilmalari Favqulodda vaziyatlar vazirligi tarkibiga o'tkazilgani munosabati bilan mamlakatning barcha tuman va shaharlarda FV bo'limlari tashkil etildi. Moddiy-texnik infratuzilmani yangilash bo'yicha 41 ta yong'in-qutqaruv qismlari binosi kapital ta'mirlanib, 37 ta bino va inshootlar yangidan qurildi).

⁵⁸ O'zbekiston Respublikasi FVV joriy arxivi, ish № 30-05, 3-yig'ma jild, 4- ro'yxat, 2020, 886-varaq.

⁵⁹ O'zbekiston Respublikasi FVV joriy arxivi, ish № 30-05, 3-yig'ma jild, 4- ro'yxat, 2020, 887-varaq.

xonadon va ularda yashovchi 2737 nafar aholi aniqlanib, ulardan 87 ta xonadon (441 nafar fuqaro) doimiy ravishda, 67 ta xonadon (358 nafar fuqaro) esa vaqtincha xavfsiz hududlarga ko'chirildi.

Tizimining rivojlanishida kadrlar masalasi eng asosiy ko'rsatkich bo'lib, sohani malakali mutaxassislar bilan to'ldirish maqsadida maxsus kurslar va ta'lim muassasalari tashkil etildi. Shuningdek, xodimlarning malakasini oshirishda xalqaro hamkorlik aloqalari ham muhim rol o'ynadi. 1992-yilda Fuqaro mudofaasi bo'yicha Respublika kurslari negizida Fuqaro mudofaasi va favqulodda vaziyatlar bo'yicha rahbar kadrlarni tayyorlash Respublika o'quv-uslubiy markazi tashkil etildi⁶⁰. Respublika hududlarida favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlik ko'rish va aholining keng qatlamlarini o'qitishda joylardagi FVBlar tasarrufidagi o'quv markazlari muhim rol o'ynadi⁶¹. Jumladan, 2002-yilda Fuqaro muhofazasi instituti va tegishli o'quv markazlarida 41587 nafar⁶² 2003-yilda 61160 nafar, 2004-yilda esa 39000 dan ortiq kishi qayta tayyorgarlikdan o'tkazildi⁶³.

Mudofaa vazirligi tasarrufida bo'lgan Fuqaro mudofaasi va favqulodda vaziyatlar bo'yicha rahbarlar tarkibini tayyorlash markazi negizida 1996-yil O'zbekiston Respublikasi Fuqaro muhofazasi instituti tashkil etildi⁶⁴. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 2-iyun kunidagi "Aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida mutaxassislar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3030-son qaroriga binoan, institut faoliyati tubdan takomillashtirildi, yangi kafedralar va markazlar tashkil qilindi, mutaxassislar tayyorlash va ularning malakasini oshirishning yagona tizimi shakllantirildi⁶⁵. Umuman olganda, 1996-2021-yillar davomida Fuqaro muhofazasi instituti tomonidan 42 mingdan ortiq rahbar kadrlar va mutaxassislar tayyorlandi.

Sohani malakali mutaxassislar bilan ta'minlash va tizim faoliyatini yanada kuchaytirish jarayonida xalqaro hamkorlik aloqalariga alohida etibor qaratildi. Jumladan, Mustaqil davlatlar hamdo'stligi mamlakatlari hamda Shanxay hamkorlik tashkilotlari doirasida aloqalar yo'lga qo'yildi. Shu bilan birga Markaziy Osiyo mamlakatlari, Latviya va Ozarbayjon davlatlari o'rtasida sohaga oid hamkorlik rivojlantirildi. Xususan, Rossiya Federatsiyasi bilan erishilgan ikki tomonlama hamkorlik kelishuvi asosida, vazirlikning qo'mondonlik-boshqaruv bo'g'in ofitserlari Favqulodda vaziyatlar bo'yicha fuqaro mudofaasi akademiyasida ikki yillik kurslarda favqulodda vaziyatlarni baholash, xavf-xatarning murakkab shakllarini prognoz qilish, xavfsizlikni tizimli boshqarish va

⁶⁰ Sobirov R, Saidxanova N. Kasbiy mahorat maktabi. // Toshkent oqshomi. 2010-yil 21-iyul.

⁶¹ Aribjanov A. Markaz samarali faoliyat boshldi. // Toshkent oqshomi. 2005-yil 26-yanvar.

⁶² O'zbekiston Respublikasi FVV joriy arxivi., ish №4-2-04, 1-yig'ma jild., 2-ich. ro'yxat, 2003, 2-varaq.

⁶³ Rajabov D. Inson hayoti bebaho. //Muhofaza +. 2005, №1. – B. 18.

⁶⁴ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 15-dekabrda "O'zbekiston Respublikasi Fuqaro muhofazasi instituti huzurida aholi va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish, shuningdek, fuqaro muhofazasi sohasidagi ilmiy ishlarni rivojlantirish bo'yicha idoralararo kengashni tashkil etish to'g'risida"gi 985-sonli qarori. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 12.04.2021-y., 09/21/200/0318-son.

⁶⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 2-iyun kunidagi "Aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida mutaxassislar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3030-son Qarori. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 34-son, 889-modd.

tezkor rejalashtirish bo'yicha ta'lim oldilar⁶⁶. Ushbu akademiyada 2000-2021-yillarda jami 63 nafar o'zbekistonlik ofitser malakasini oshirdi⁶⁷.

Umuman olganda, mustaqillik yillarida tizim faoliyatini takomillashtirishga oid bir qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinib, ular amaliyotga joriy etildi. Sohoni malakali mutaxassislar bilan ta'minlash, ularni malakasini oshirish borasida ham salmoqli chora-tadbirlar amalga oshirilib, fuqaro muhofazasi hamda o'zaro tajriba almashinuvi bo'yicha xalqaro hamkorlik aloqalari ham rivojlantirildi.

XULOSA

Tadqiqot yakunida quyidagi asosiy xulosalarga kelindi:

1. O'zbekiston hududida fuqaro muhofazasi tizimining shakllanishi va rivojlanishi uzoq tarixiy jarayon bo'lib, 1932-yildan boshlanib, hozirgi kungacha bosqichma-bosqich amalga oshirildi. Havo hujumidan mahalliy mudofaa tizimi sifatida tashkil topgan bu tuzilma, o'z faoliyatining dastlabki bosqichlarida aholining harbiy xavfsizligini ta'minlashga yo'naltirilgan edi. Bu davrda tashkilotlarning vazifalari, vakolatlari, majburiyatlari va javobgarliklari aniq belgilab olindi, ularning amaliy faoliyati yuzasidan zarur tashkiliy tuzilma va moddiy-texnik baza yaratildi.

2. Ikkinchi jahon urushi yillarida (1941-1945-yillar) havo hujumidan mahalliy mudofaa tizimining ahamiyati sezilarli darajada oshdi. O'zbekiston hududida aholini havo hujumlaridan himoya qilish, bolalar va nogiron aholini evakuatsiya qilish rejalarini ishlab chiqish, maxsus boshpana punktlarini tashkil qilish kabi keng qamrovli tadbirlar amalga oshirildi. Shuningdek, kimyoviy hujum xavfiga qarshi maxsus choralar ko'rilib, respublikada yuzaga keladigan har qanday xavfli vaziyatlarga tezkor va samarali munosabat ko'rsatish uchun shtablar va guruhlarining faoliyati yo'lga qo'yildi. Bu yillarda respublikaning turli hududlarida yuqumli kasalliklar tarqalgan bo'lib, soha tarkibidagi sanitar drujinalar tibbiyot mutaxassislari bilan birgalikda ushbu kasalliklarni bartaraf etishda ham faol ishtirok etdilar. Jumladan, respublika miqyosida tibbiyot uchastkalarida tif va boshqa yuqumli kasalliklarga chalingan bemorlarni aniqlash maqsadida maxsus brigadalar tashkil qilinib, ular kasalliklarning tarqalishini oldini olish va to'xtatishga o'z hissalarini qo'shdilar.

3. Urushdan keyingi davrda (1946-1961-yillar) xalqaro vaziyatning keskinlashuvi va yangi turdagi xavflar, xususan yadro tahdidining paydo bo'lishi sababli tizimning vazifalari ham yanada kengaydi. Bu davrda aholining xavfsizligini ta'minlash bo'yicha yangi tadbirlar ishlab chiqilib, keng miqyosdagi mashg'ulotlar o'tkazildi. Tabiiy ofatlar va texnogen falokatlarga tayyorgarlik ham kuchaytirilib, fuqaro mudofaasi bo'yicha aholi bilimlarini oshirishga e'tibor qaratildi. Lekin, 1960-yili mamlakatdagi havo mudofaasi shtablarining qisqartirilishi oqibatida, havo hujumidan mahalliy mudofaa xizmatlari va u bilan bog'liq noharbiy tuzilmalar faoliyati deyarli to'xtatildi. Sohadagi bunday

⁶⁶ O'zbekiston Respublikasi FVV joriy arxivi, ish № 4-05/1, 2-yig'ma jild, 2- ro'yxat, 2000, 486-varaq.

⁶⁷ Boymirzayev A. Xalqaro tajribalardan ta'lim xulosasi // Muhofaza+. 2022, № 11. – B. 31.

o'zgarishlar havo hujumidan mahalliy mudofaa tizimining jangovar tayyorgarligiga salbiy ta'sir qildi.

4. 1961-yilda havo hujumidan mahalliy mudofaa tizimi fuqaro mudofaasi tizimiga aylantirilganidan so'ng, uning vazifa va vakolatlari yanada kengayib, mamlakatda tabiiy ofatlar, texnogen falokatlarga qarshi kurash masalasi ham asosiy yo'nalish sifatida belgilandi. Bu jarayonda zamonaviy harbiy xavf-xatarlarni inobatga olgan holda, fuqarolarni, iqtisodiy obyektlarni, oziq-ovqat zaxiralari va suv manbalarini yadro va raketa zarbalaridan himoya qilish bo'yicha asosiy tamoyillar, normativ hujjatlar, uslubiy qo'llanmalar va darsliklar tayyorlanib, amaliyotga joriy etildi. Shu o'rinda qayd etish joizri, fuqaro mudofaasi shtablari tomonidan aholini o'qitishga oid tadbirlar o'tkazilgan bo'lsa-da, bu borada bir qator kamchiliklar ham kuzatilgan. Xususan, aholini to'garaklarda o'qitish sifati yuqori darajada bo'lmagan, mashg'ulotlar asosan nazariy bilimlar bilan cheklanib, amaliy mashg'ulotlarga yetarlicha e'tibor berilmagan. Ayrim fuqaro mudofaasi rahbarlari murakkab vaziyatlarda tuzilmalarni qat'iy boshqarish ko'nikmasini egallamagani, ba'zilar esa o'zlarining funksional vazifalari haqida yetarli bilimga ega emasligi kabi holatlar uchrab turgan.

5. Tahlil etilayotgan yillarda fuqaro mudofaasi xodimlari respublikaning ayrim hududlarida yuzaga kelgan (Qoraqalpog'iston va Xorazm) vabo epidemiyasi xavfiga (1965-yil avgust) qarshi kurashda, Toshkent shahri va Buxoro viloyatining Gazli tumanida sodir bo'lgan zilzilalaruning zararlarini (elektr energiyasi, aloqa, ichimlik suvi, oziq-ovqat va moddiy-texnik ta'minot tarmoqlarini tiklash ishlarida), Toshkent viloyati (Oqqo'rg'on, Bo'stonliq tumani), Andijon, Farg'ona, Samarqand va Surxondaryo viloyatlarining tog'li va vodiy qismlarida suv toshqinlari va yuz bergan ko'chki oqibatlarini bartaraf etishda faol ishtirok etishdi. XX asr 80-yillarining ikkinchi yarmida jamiyatda yuzaga kelgan iqtisodiy qiyinchiliklar soha faoliyatiga ham ta'sir qilib, fuqaro mudofaasi tizimining moddiy-texnik ta'minotida uzilishlar kuzatildi, shaxsiy tarkib va shtat birligida ham qisqartirishlar amalga oshirildi.

6. Mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasida fuqaro muhofazasi tizimi sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarildi. 1996-yilda O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi tashkil etilib, favqulodda vaziyatlarni oldini olish, aholini ogohlantirish va himoyalash bo'yicha yagona davlat tizimi yaratildi. Mazkur vazirlik faoliyati davomida yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash borasida sezilarli ishlarni amalga oshirildi. Xalqaro standartlarga mos mutaxassislarni tayyorlash uchun vazirlik tarkibida maxsus ta'lim muassasalari tashkil qilindi va rivojlantirildi.

7. Mudofaa vazirligi tasarrufida bo'lgan Fuqaro mudofaasi va favqulodda vaziyatlar bo'yicha rahbarlar tarkibini tayyorlash markazi negizida O'zbekiston Respublikasi Fuqaro muhofazasi instituti tashkil etildi. Institut respublika, viloyat va tuman miqyosidagi tashkilot rahbarlari, mas'ul mutaxassislar, shuningdek, tuman va shahar hokimlari hamda ularning o'rinbosarlarini fuqaro muhofazasi va safarbarlik tayyorgarligi yo'nalishida malakasini oshirishga ixtisoslashtirildi. Akademiya Respublikada favqulodda vaziyatlarni oldini olish, ularni bartaraf etish, fuqaro muhofazasi, yong'in xavfsizligini ta'minlash, hayot faoliyati xavfsizligi

sohasida malakali kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish, ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar zaxirasini shakllantirish bo'yicha yagona tayanch oliy harbiy davlat ta'lim muassasasi sifatida faoliyat yuritmoqda.

8. Sohani rivojlantirish jarayonida xalqaro tashkilotlar bilan faol hamkorlik olib borilib, ilg'or tajriba va zamonaviy texnologiyalar respublikada keng qo'llanildi. BMT, MDH davlatlari, ShHT va boshqa xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik natijasida respublika favqulodda vaziyatlarni oldini olish va oqibatlarini bartaraf etish bo'yicha xalqaro hamjamiyatning ishonchli hamkoriga aylandi. Shungdek, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston Respublikalari hamda Ozarbayjon va Latviya davlatlari bilan favqulodda vaziyatlarda o'zaro yordam berish bo'yicha kelishuvlar imzolandi, tajriba almashish va kadrlarni malakasini oshirish bo'yicha ko'plab amaliy tadbirlar o'tkazildi. Bu borada olib borilgan chora-tadbirlar sohaning rivojlanishida muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etdi.

9. Shunday qilib, 1932-2021-yillar oralig'ida O'zbekistonda fuqaro muhofazasi tizimi shakllanib, rivojlanib, zamonaviy talablar asosida doimiy ravishda takomillashtirildi. Ushbu tizim mamlakat aholisini turli xil xavf-xatarlardan samarali himoya qilish mexanizmiga aylandi va hozirgi kunda ham O'zbekiston Respublikasining xavfsizligini ta'minlovchi muhim davlat tizimi sifatida faoliyat ko'rsatmoqda.

Olib borilgan tadqiqot xulosalari asosida quyidagi **taklif va tavsiyalar** bildirildi:

1. Aholining xavfsizlik madaniyatini oshirish maqsadida maktab, kollej va oliy ta'lim muassasalarida fuqaro muhofazasi fanini majburiy umumiy o'quv dasturiga kiritish, ushbu fan doirasida interaktiv simulyatsiyalar va real sharoitdagi treninglar asosida bilim berish.

2. Favqulodda vaziyatlar yuzaga kelganda axborot tarqatish va boshqaruvni ta'minlash uchun markazlashgan milliy axborot markazini tashkil etish. Bu markaz sun'iy yo'ldosh aloqalari orqali har qanday sharoitda ishlash imkoniyatiga ega bo'lgan rezerv kommunikatsiya infratuzilmasiga ega bo'lishi lozim.

3. O'zbekistonning geostrategik holatini inobatga olib, Markaziy Osiyo davlatlari bilan hamkorlikda transchegaraviy favqulodda vaziyatlarga qarshi kurashish bo'yicha yagona mintaqaviy reaksiya mexanizmini ishlab chiqish va xalqaro miqyosda ko'p tomonlama muhofaza choralari bo'yicha memorandumlar imzolash.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ
СТЕПЕНЕЙ DSc.03/2025.27.12.Tar.01.01 ПРИ
НАЦИОНАЛЬНОМ УНИВЕРСИТЕТЕ УЗБЕКИСТАНА**

НАЦИОНАЛЬНЫЙ УНИВЕРСИТЕТ УЗБЕКИСТАНА

ТЕШАБОВ БУРАЖОН АБРАМОВИЧ

**ИСТОРИЯ СИСТЕМЫ ГРАЖДАНСКОЙ ЗАЩИТЫ В УЗБЕКИСТАНА
(1932–2021)**

07.00.01 - история Узбекистана

**АВТОРЕФЕРАТ
ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО ИСТОРИЧЕСКИМ
НАУКАМ**

ТАШКЕНТ – 2026

Тема диссертации доктора философии (PhD) по историческим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Академии наук Республики Узбекистан под номером B2026.3.PhD/Tar49.

Диссертация подготовлена к защите в Национальном университете Узбекистана имени Мирзо Улугбека.

Автореферат диссертации размещен на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) на веб-странице Научного совета (<http://ik-tarix.nuu.uz>) и на информационно-образовательном портале "ZiyoNET" (www.ziynet.uz).

Научный руководитель: **Дусчанов Расулжон Рахимбаевич**
доктор философии (PhD) по историческим наукам,
доцент

Официальные оппоненты: **Расулов Абдулла Нуриддинович**
доктор исторических наук, профессор.
Хасанов Бахтиёр Вахапович
доктор исторических наук, профессор.

Ведущая организация: **Ташкентский государственный технический университет имени Ислама Каримова.**

Защита диссертации состоится "___" _____ 2026 года в ____ часов на заседании Научного совета DSc.03/30.12.2019.Tar.01.04 по присуждению ученых степеней при Национальном университете Узбекистана.

(Адрес: 100174, г. Ташкент, ул. Мирзо Голиба, Факультет истории Национального университета Узбекистана, 1-й этаж, аудитория 110. Тел.: (+99871) 246-12-24; факс: (+99871) 246-53-21. 99871 246-02-24; e-mail: nauka@nuu.uz. Национальный университет Узбекистана).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Национального университета Узбекистана (зарегистрирована под ____). (Адрес: 100174, г. Ташкент, ул. Университетская, 4. Главное здание). Тел.: +99871 236-46-55, факс: +99871 246-02-24).

Автореферат диссертации разослан "___" _____ 2026 года.
(реестр протокола рассылки No ____ от "___" _____ 2026 года).

Х.Э.Юнусова
Председатель Научного совета по
присуждению ученых степеней, д.и.н.
профессор

Ж.Э.Тогаев
Учёный секретарь Научного совета по
присуждению ученых степеней,
д.ф.ф.н (PhD), доцент

Н.У. Мусаев
Председатель Научного семинара при
Научном совете по присуждению
ученых степеней, д.и.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации на соискание степени доктора философии (PhD))

Актуальность и необходимость темы диссертации. Геополитические процессы, происходящие в мире в условиях глобализации, военные столкновения и вооруженные конфликты, возникающие в различных регионах в результате разногласий между отдельными странами, ставят перед каждым государством важные задачи по обеспечению безопасности мирного населения, защите народного хозяйства, разработке планов эвакуации детей и инвалидов, проведению инженерно-технических мероприятий в городах и на хозяйственных объектах, защите населения от воздушных атак и современного оружия, обеспечению своевременного оповещения населения об угрозах, строительству защитных сооружений и выполнению многих других мероприятий. Обеспечение эффективности проводимых в этом направлении мер, то есть обеспечение безопасности населения при возникновении чрезвычайных ситуаций, является одной из функциональных обязанностей системы государственного управления.

В ведущих научно-исследовательских центрах мира постоянно изучалась история местной сферы противовоздушной обороны и системы Гражданской обороны, действовавшей в Узбекистане в советский период и в годы независимости, их готовность к чрезвычайным ситуациям, особенно меры по обеспечению безопасности населения в условиях кризиса, возникшего в международных отношениях в годы советского правления. На сегодняшний день вопросы, связанные с защитой от различных стихийных бедствий, воздушных и техногенных атак, исследуются на международном уровне. В связи с этим результаты, полученные в исследованиях, позволяют сделать соответствующие выводы по этим процессам и разработать теоретические и практические рекомендации.

В годы независимости в процессе реформ, проводимых во всех сферах жизни общества в Узбекистане, в качестве основных задач государственной политики были определены вопросы обеспечения безопасности населения при возникновении чрезвычайных ситуаций, их переселения в другие регионы, охраны важных объектов и ликвидации последствий стихийных бедствий. В частности, в Законе Республики Узбекистан “О Гражданской защите”¹, в качестве таких задач указано: ... “обучение населения способам защиты от опасностей, возникающих во время военных действий или в результате этих действий; организация систем управления, оповещения и связи, развитие отрасли и поддержание в постоянной готовности; проведение комплексных мероприятий по обеспечению стабильной работы объектов народного хозяйства; эвакуация населения, материальных и культурных ценностей в безопасные места; проведение мероприятий по обеспечению населения общими и индивидуальными средствами защиты; проведение оперативно-спасательных работ и другие задачи и обязанности”. С этой

¹ O‘zbekiston Respublikasi Fuqaro mudofaasi to‘g‘risidagi Qonun. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2000-y., 5-6-son, 151-modda; Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, <http://lex.uz/uz/docs/-2994>.

точки зрения важное научное значение приобретает изучение истории системы Гражданской обороны, действующей на территории Узбекистана, критическая оценка ее деятельности, выводы и рекомендации по развитию отрасли.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит реализации поставленных задач в Постановлении Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года, Указе No УП-60 “О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы”, Постановлении Президента Республики Узбекистан “О поднятии на качественно новый уровень сферы надежной защиты населения и территорий от чрезвычайных ситуаций” от 20 октября 2025 года No УП-185, Постановлении Президента Республики Узбекистан 2025 год от 20 октября 2017 года No ПП-310 “Об организационных мерах по дальнейшему совершенствованию деятельности органов по чрезвычайным ситуациям”, Постановлении Президента Республики Узбекистан от 20 октября 2025 года No ПП-311 “О мерах по цифровизации сферы защиты от чрезвычайных ситуаций, а также развитию научной и инновационной деятельности” и в других нормативно-правовых документах, относящихся к теме.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Диссертация выполнена в рамках приоритетного направления развития науки и технологий республики I. “Формирование системы инновационных идей и пути их реализации в социальном, правовом, экономическом, культурном, духовно-просветительском развитии информационного общества и демократического государства”.

Степень изученности проблемы. Литературу и исследования по теме целесообразно разделить на три группы в зависимости от содержания и периода, а именно: первая - литература советского периода, вторая - книги и исследования, опубликованные в республике в годы независимости, третья - литература, опубликованная за рубежом.

В литературе² и научных исследованиях³, опубликованных в советский период, проанализированы такие вопросы, как роль гражданской защиты населения и объектов народного хозяйства в военное время, в том числе в

² Ахунджанов С. Гражданская оборона Узбекистана на современном этапе. – Ташкент: Узбекистан, 1977; Алтунин А. Граждан мудофааси тузилмаларининг табиий офатларга қарши курашдаги иши. – Тошкент: Ўқитувчи, 1979. - 180 б; Бозоров Ю. Улуғ Ватан уруши йилларида Ўзбекистон оммавий-мудофаа ташкилотлари (1941-1945 йиллар). – Тошкент: Фан, 1979. – 61 б.; Ахунджанов С. Гражданской обороне Узбекской ССР – пятьдесят лет. – Ташкент: Знание, 1982; Хошимов М. Замин ҳаракатга келганда. – Тошкент: Фан, 1986. - 34.б; Атаманюк Г., Ширшев Л., Акимов Н. Гражданская оборона. Учебник. – Москва: Высшая школа, 1986.; Касымов Б. Охрана социалистической собственности от пожара. – Ташкент: Мехнат, 1987; Его же. Организационные и правовые основы пожарной безопасности. – Ташкент: Мехнат, 1990;

³ Муминова Х.М. Деятельность общественных организаций Узбекистана по укреплению обороноспособности страны накануне великой отечественной войны (1937-июнь 1941 гг.). Дисс. канд. ист. наук. – Ташкент, 1985. - 187 с; Халиков И. Орошение и освоение крупных целинных массивов Среднеазиатских республик (60-е – начало 80-гг.). Дисс. докт. ист. наук. – Ташкент, 1989. - 380 с.

мировых войнах, наличие различных видов оружия массового уничтожения в мире, необходимость усиления системы гражданской защиты в результате обеспечения стабильной работы населения, народного хозяйства и категоризованных объектов современным оружием, которые важны тем, что в них представлен ряд фактических данных по исследуемой теме. Также в научных статьях, опубликованных в этот период⁴, показаны процессы ликвидации последствий чрезвычайных ситуаций в республике.

В целом, хотя в литературе и статьях, включенных в первую группу, встречается ряд статистических материалов по теме, вопросы формирования и деятельность единой системы гражданской защиты, предотвращения чрезвычайных ситуаций и их социального воздействия не исследованы с исторической точки зрения.

В литературе⁵ и исследованиях⁶, опубликованных историками, правоведами и социологами в годы независимости, рассмотрены вопросы гражданской защиты и снижения последствий чрезвычайных ситуаций, обеспечения устойчивой работы объектов народного хозяйства.

Вместе с тем, в целях защиты населения и территорий от чрезвычайных ситуаций, обеспечения спокойствия населения, поведения человека в критических ситуациях и оказания помощи окружающим, предлагаются рекомендации и пособия по обучению населения⁷.

⁴ Горшков Г. Ер кимирлаши. // Қизил Ўзбекистон. 1952, № 2. – Б. 231; Нуркулов Р. Колхоз вышел на учение. // Военные знания. №9, 1967 г.; Улянов В. (Начальник штаба гражданской обороны Узбекской ССР). Быть на чеку. // Правда Востока 4 апреля 1968 г.; Буканов Н. Всенародное дело. // Вечерний Ташкент. 31 марта 1970 г.; Юдин Ю. Если прозвучит тревога. // Правда Востока. 29 января 1972 г.; Раупов Х. Мақтаса арзигулик. // Ёш Ленинчи. 1973 йил 25 январ.; Круглов Н. Объект машқлари диққат марказида. // Ленин байроғи. 1975 йил 8 январ.

